

## Masofaviy Ta'lim Jarayonida "Tayanch - Xarakatlanish Sistemasi" Modeling O'qitish Metodikasini Takomillashtirish

S. Sh. Turdaliyeva<sup>1</sup>, M. A. Toshtemirova<sup>2</sup>

**Tadqiqotning dolzarbliyi.** Dunyoda o'rta pedagogik ta'lim muassasalari o'quvchilarining mustaqil ishlash faoliyatini kreativ (ijodiy) qobiliyatlarini rivojlantirishning lokal modulli texnologiyalari ta'lim jarayonlariga tadbiq etilgan. Birlashgan millatlar tashkilotining baloniya dekloratsiyasi doirasida o'qitish jarayonini foallashtirish ta'lim sifatini oshirish, o'rta ta'lim muassasalarida masofaviy o'qitish texnologiyasini takomillashtirishning faol va interfaol shakllari variativligini ta'minlash bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamiz ta'lim muaccacalapida xorijiy davlatlar tajribalari asosida o'quvchilarning masofadan ta'lim olish faoliyati, o'quv uslubiy ta'minoti, yangi o'quv texnologiyalarini ta'lim jarayoniga joriy etish, o'rta ta'lim muassasalarining halqaro ilmiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik aloqalar o'rnatishi, o'quv jarayoniga, xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan pedagogik texnologiyalar va o'quv uslubiy materiallarni joriy qilishning meyoriy asoslari yaratildi va ta'lim muassasalarining infrastruktusi rivojlantirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli farmonida "2026 yilga qadar o'quv dasturlari va darsliklarni ilg'or xorijiy tajriba asosida to'la qayta ko'rib chiqib, amalda joriy etish"<sup>1</sup> masalasi belgilanib, bu borada pedagogika o'rta ta'lim muassasalarida masofaviy talim jarayonida odam va uning salomatligi fanini o'qitish metodikasini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrgi "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-sun Farmoni "Ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish"<sup>2</sup> muhim ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

**Tadqiqot maqsadi.** Masofaviy talim jarayonida "Odam va uning salomatligi fanidan tayanch xarakatlantirish tizimini o'qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan metodik vositalar va tavsiyalar berishdan iborat.

### Tadqiqotning vazifalari:

- ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish asosida "Odam va uning salomatligi" fanini o'qitishda masofaviy talimning imkoniyatlarini aniqlash maqsadida uning asosiy tavsiflarini aniqlash;
- masofaviy talim jarayonida "Odam va uning salomatligi" fanini o'qitishning tashkiliy metodik sharoitlarini virtual ta'lim muhitining asinxron imkoniyatiga asoslangan mustaqil ta'lim elementlarini integratsiyalash asosida aniqlash;
- odam va uning salomatligi fanidan yangi pedagogik texnologiyalar asosidagi amaliy mashg'ulotlar ishlannalarini yaratish va amaliyotda foydalanishning o'rni va ahamiyatini asoslash;

**Tadqiqot ishining obyekti** masofaviy talim jarayonida "Odam va uning salomatligi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish jarayoni belgilanib, unda Farg'ona shaxar 10-umumta'lim maktab 8-sinf 339 nafar o'quvchilar ishtiroy etgan.

**Tadqiqot ishida qo'llanilgan uslublar.** DTS, o'quv dasturi va darsliklarni qiyosiy tahlil etish, dars jarayonini kuzatish, suhbat, so'rovnomalari o'tkazish, mantiqiy xulosalash va statistik tahlil etishdan iborat.

<sup>1</sup> Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston

<sup>2</sup> Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona, O'zbekiston



Bugungi kunda axborot texnologiyalari fani va jumladan, inson bilimlarining rivojlanishida keskin o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. Bunda insonning ichki tuzilishi, mohiyati, psixologik qonuniyatlari va tafakkurining xususiyatlari yangicha namoyon bo'lmoqda. Dolzarb va muhim bo'lgan vazifalardan biri masofaviy ta'lim olish faoliyati ongli ravishda o'quv-biluv faoliyatini shakllantirish, amaliy tajribalarga asoslangan holda ma'lum bir maqsadlarni ko'zlab, tafakkur operatsiyalarini bajarish alohida talabalar tomonidan o'zlashtirilgan bilimlar va ko'nikmalarning puxtaligi, barqarorligi va mustahkamligini masofaviy talim jarayonida "Odam va uning salomatligi" fanini o'qitish metodikasini takomillashtirish va o'quvchanligining rivojiga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Rivojlangan mamlakatlarda yuz berayotgan global axborotlashtirish jarayonining rivojlanishi butun dunyoda millionlab odamlarning hayotida yangi axborot turmush tarzining shakllanishiga olib keldi. Dunyo hamjamiyatining boshqa ko'plab mamlakatlarida keyingi o'n yilliklar ichida sivilizatsiya rivojlanishining eng muhim strategik muammosi sifatida ta'limni axborotlashtirish muammosiga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda [1, 17 b].

Ta'limni axborotlashtirish, Oliy talim muassalarini o'qitishning zamonaviy texnik vositalari – mediateka, yuqori texnologik o'quv jihozlari, keng yo'lkali Internet, savodli darsliklar va interfaol o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash uni modernizatsiyalash shartlaridan biri hisoblanadi.

1991 yilda Kaliforniya universiteti axborot va kompyuterlashtirish fanlari va fizikaning faxrli professori A.Vork kelajakda ta'lim tizimini rivojlantirilishiga nisbatan bashorat qildi: "... biz 2010 yilga kelib dunyoning ko'p qismlarida kompyuter ta'limni yetkazib berishning asosiy tizimlaridan biri bo'lishini kutamiz" [2].

Axborot-telekommunikatsion tarmoqlarning hamda axborot texnologiyalarining keyingi yillardagi funksional imkoniyatlari va texnik tavsifnomalari o'ta tez o'sib bormoqda, ularning tannarxi esa og'ishmay pasayyapti, bu esa ommaviy foydalanuvchilar uchun bunday vositalarni olish imkoniyatlarini ko'payishiga olib kelyapti. Imkoniyatlar bugungi kundayoq jamiyatning foydalanish uchun talab qilinadigan tayyorgarligidan o'zib ketgan va jamiyatning ta'lim sohasini rivojlantirish bilan uzviy bog'liq bo'lgan yangi axborot madaniyatini rivojlantirish muammosini keltirib chiqaradi [3].

Jamiyatni axborotlashtirish jarayoni ta'lim tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarining integratsiyalanishi bilan bog'liq yangi atamashunoslikning shakllanishiga olib keldi. Bizning tadqiqotimizda foydalaniladigan asosiy atamalarni muhokama qilish zarur deb hisoblaymiz.

Ta'limni axborotlashtirish – ta'lim sohasini o'qitishning, tarbiyaning psixologo-pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan zamonaviy AKT vositalarini ishlab chiqish va optimal foydalanish metodologiyasi va amaliyoti bilan ta'minlash jarayonidir [4].

Axborot texnologiyalari – bu axborotni saqlash, qayta ishslash, uzatish va aks ettirishni ta'minlovchi hamda mehnat samaradorligi va ishlab chiqaruvchanligini oshirishga yo'naltirilgan metodlar, usullar va vositalar majmuasi. Axborot texnologiyalari (AT) inson va jamiyatning intellektual, boshqaruvchilik va ishlab chiqarish faoliyatining ko'pchilik turlarining ajralmas qismidir. Zamonaviy sharoidta axborot texnologiyalarining rivojlanishi hisoblash texnikasi va u bilan bog'liq axborot jarayonlarini avtomatlashtirishning metodlari va vositalaridan foydalanishga asoslangan. F.S.Voroyskiy bu vositalarining foydalanish darajasidan kelib chiqib, axborot texnologiyalarini an'anaviy va zamonaviy larga ajratadi [5].

Professor N.Muslimov o'zining "Elektron darslik yaratish metodik tamoyillari va texnologiyalari" nomli qo'llanmasida quyidagilarni keltirib o'tadi:

an'anaviy va innovatsion metodlar, o'qitish vositalari va formalarini o'z ichiga olgan sirtqi va kunduzgi ta'lim singari axborot va telekommunikatsiya texnologiyalariga asoslangan ta'lim formasidir [6].



Masofaviy o‘qish – bu yangi axborot texnologiyalari, telekommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalariga asoslangan ta’lim tizimidir. U ta’lim oluvchiga ma’lum standartlar va ta’lim qonun-qoidalari asosida o‘quv shart sharoitlari va o‘qituvchi bilan muloqotni ta’minlab berib, talabadan ko‘proq mustaqil ravishda shug‘ullanishni talab qiluvchi tizimdir. Bunda o‘qish jarayoni ta’lim oluvchini qaysi vaqtida va qaysi joyda bo‘lishiga bog‘liq emas.

Masofaviy ta’lim – masofadan turib o‘quv axborotlarini almashuvchi vositalarga asoslangan, o‘qituvchi maxsus axborot muhit yordamida, aholining barcha qatlamlari va chet ellik ta’lim oluvchilarga ta’lim xizmatlarini ko‘rsatuvchi ta’lim majmuidir.

Masofaviy o‘qitish tizimi – masofaviy o‘qitish shartlari asosida tashkil etiladigan o‘qitish tizimi. Barcha ta’lim tizimlari singari masofaviy o‘qitish tizimi o‘zining tarkibiy maqsadi, mazmuni, usullari, vositalari va tashkiliy shakllariga ega [7].

Zamonaviy axborot texnologiyalarining tadbiq etilishi ta’lim muassasalarida quyidagilarning mavjud bo‘lishini ko‘zda tutadi:

o‘qitishning texnik vositalari sifatida zamonaviy komkyuterlar va kommunikatsiya vositalari;

tizimli va amaliy dasturiy ta’minot;

o‘quv-tarbiyaviy jarayonda yangi axborot texnologiyalarini qo‘llash bo‘yicha metodik ishlanmalar.

Ta’lim muassasalarida kompyuterlarning soni va sifati emas, balki oliy ta’lim muassasalarida talabalarni, ularning ota-onalarini, pedagogik jamoani va ma’muriyatni birlashtirib turuvchi yagona axborot ta’lim muhitining mavjudligi yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligining haqiqiy mezoni bo‘lishi kerak.

O‘qitishning kompyuter vositalari – bu o‘quv fani mazmuniga ega bo‘lgan ma’lum pedagogik vazifalarni hal qilishga mo‘ljallangan dasturiy vositalar yoki dasturiy-texnik majmualar. O‘quv fanining mazmuni deganda o‘qitishning kompyuter vositalari ma’lum fan bo‘yicha o‘quv materialini o‘z ichiga olishi kerakligi nazarda tutiladi (deklarativ xususiyatga ega ma’lumotlar, bilim va malakalarni nazorat qilish uchun topshiriqlar, shuningdek o‘rganilayotgan jarayonlarni ifodalovchi modellar va algoritmlar).

Masofaviy talim jarayonida o‘qituvchilar va talabalar o‘zaro ta’sir subyekti sifatida, elektron pochta, telekonferensiyalar, Zoom va shunga o‘xhash dasturlar orqali aloqalar, real vaqt rejimidagi dialoglar esa bunday o‘zaro ta’sirni amalga oshirish vositalari sifatida namoyon bo‘ladilar.

Masofaviy ta’lim masofaviy o‘qitishdan nimasi bilan farq qilishini aniqlab olish zarur. Bizning nazarimizda, “Masofaviy o‘qitish – masofadan turib axborot almashinishning barcha mumkin bo‘lgan texnologiyalarini va shakllarini o‘z ichiga oluvchi bilvosita axborot uzatish jarayoni orqali bilim va malakalarni egallash jarayoni”.

O‘z navbatida pedagoglar, “masofaviy ta’lim” tushunchasini ham “modernizatsiyalashtirilgan sirtki ta’lim”, ham “turli o‘quv-metodik majmualar yordamida mustaqil ta’lim” deb talqin qiladi.

Shunday qilib, o‘qitish – pedagog va talabaning barcha metodlar va vositalar yordamida o‘zaro bog‘langan faoliyati jarayoni bo‘lsa, u holda masofaviy ta’lim bilimlarni mustaqil egallash tizimini nazarda tutadi [8].

Zamonaviy kompyuter telekommunikatsiyalari yordamida bilimlarni uzatishni va turli-tuman o‘quv axborotlariga kirish imkoniyatini an’anaviy o‘qitish vositalari bilan teng baravar, ba’zan esa undan ancha samaraliroq ta’minalash mumkin. Tovushni, harakatni, obrazni va matnni integratsiyalash o‘z imkoniyatlariga ko‘ra yangi g‘ayrioddiy boy o‘quv muhitini yaratadi, uni rivojlantirilishi bilan talabalarni o‘quv jarayoniga jalb qilish darajasi ham ortadi. Masofaviy o‘qitishda foydalaniladigan axborotni yetkazib berish dasturlari va tizimlarining interfaol imkoniyatlari ko‘pchilik an’anaviy o‘qitish tizimlarida bularni amalga oshirish mumkin bo‘lgan teskari aloqani yo‘lga qo‘yish va hattorag‘batlantirish, dialogni hamda doimiy qo‘llab-quvvatlashni ta’minalash imkonini beradi [9].



## Xulosalar.

*Biz ilgari surgan ilmiy muammoni tadqiqotda qo‘yilgan maqsad va vazifalarga mos ravishda nazariy va eksperimental tadqiq qilish natijalariga asoslanib quyidagicha xulosa chiqarish mumkin:*

- Ta’lim tizimini modernizatsiyalash va innovatsion rivojlantirish jamiyatning keyingi rivojlanishini belgilab beruvchi strategik yo‘nalish hisoblanadi. Ta’limni axborotlashtirish, oliy ta’lim muassasalarini o‘qitishning zamonaqviy texnik vositalari – mediateka, yuqori texnologik o‘quv jihozlari, keng polosali Internet, interfaol o‘quv qo‘llanmalari bilan jihozlash va ochiq o‘quv fazosini yartish ta’limni modernizatsiyalash shartlaridan biri hisoblanadi.
- Masofaviy ta’limni taqdim etuvchi oliy ta’lim muassasalari soni keskin ko‘paydi. Biroq, keyingi yillarda masofaviy o‘qitish vositalari rivojlantilishiga qarmay, oliy ta’lim muassasalarida o‘qitish sifati yuqori emas.

### *Masofaviy o‘qitishning zamonaqiy muammolarining sabablari aniqlandi:*

- Odam va uning salomatligi o‘qituvchilarida va talabalarda kompyuter savodxonligining yetarlicha shakllantirilmaganligi;
- Odam va uning salomatligini masofaviy o‘qitish metodikasining yo‘qligi;
- talabalarning Odam va uning salomatligini masofaviy o‘qishga motivatsiyasining va mustaqil intizomining pastligi;
- laboratoriya ishlarining va boshqa talabalar bilan tajriba almashishning yo‘qligi;
- zarur texnik ta’mnotinig va doimiy, yuqori tezlikdagi Internetning yetishmasligi.

*Psixologik, pedagogik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish masofaviy o‘qitishda o‘qituvchilar va talabalarning o‘zaro aloqasini tashkil qilishning bir necha asosiy usullari mayjudiliginini aniqlash imkonini berdi:*

- tashkiliy va metodik usullar: eksternat, bitta muassasa bazasida, bir necha o‘quv muassasalarining hamkorligi, avtonom ta’lim muassasalari, avtonom o‘rgatuvchi tizimlar;
- texnologik shartlar: yagona media, multimedia, gipermedia. Tarmoq o‘zaro aloqa va ochiq ta’lim fazosi asosida masofaviy o‘qitish deyarli amalga oshirilmayotganligi aniqlandi.
- “Odam va uning salomatligi” fanini masofaviy o‘qitish bo‘yicha ishlab chiqilgan model quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: maqsadli (maqsad va vazifalar); loyihalashtirish (masofaviy o‘qitish vositalarini, xususan elektron o‘quv-metodik majmuasini qo‘llash tamoyillari va ularga qo‘yladigan talabalar); motivatsion, mazmuniy (o‘quv mavzularining mazmuni va elektron o‘quv-metodik majmuasining kontenti); natijaviy.
- Tadqiqiot doirasida ishlab chiqilgan o‘quv-metodik majmuasi Odam va uning salomatligini masofaviy o‘qitish vositasi sifatida gipermediali ko‘p komponentli ta’lim resursi hisoblanib, axborot-kommunikatsiya texnologiyalariga qo‘yladigan zamonaqiy talablarga javob beradi, innovatsion xususiyatlarga ega, bilimlarni shakllantirish, mustahkamlash va o‘zlashtirilishini nazorat qilish jarayonini ta’minlaydi.
- Nazariy model asosida “Odam va uning salomatligi” fanini masofaviy o‘qitish metodikasi ishlab chiqildi. Bunda talabaning tarmoq o‘quv metodik majmuasi bilan o‘zaro aloqa qilish darajalarini, talabaning o‘qituvchi bilan o‘zaro aloqa qilish imkoniyatlari hisobga olindi, talabalarning mustaqil o‘quv faoliyatini tashkil qilishga alohida e’tibor qaratildi.

### **Foydalilanilgan adabiyotlar:**

1. Толипова Ж.О. Одам анатомияси ва физиологияси ўқитувчининг илмий–методик тайёргарлиги даражасини орттириш назарияси ва амалиёти. Автореф. дис... пед. фан. доктори. – Т.: ТДПУ, 2006. – 45 б.
2. Hennessy, S., Ruthven, K. & Brindley, S. (2005) Teacher perspectives



3. Янги ахборот технологиялари. Олий таълим муассасалари учун / А.Парпиев, А.Марахимов, Р.Ҳамдамов, У.Бегимкулов, М.Бекмурадов, Н.Тайлоқов. ЎзМЭ давлат илмий нашриёти.–Т.: 2008, –118 б.
4. Разлогов К.Э. Что такое медиаобразование? // Медиаобразование. 2005.– № 2.– С. 68–75.
5. Воройский, Ф.С. Информатика: Новый систематизированный толковый словарь-справочник (Введение в современные информационные и телекоммуникационные технологии в терминах и фактах) / Ф. С. Воройский.
6. Никишина И.В. Инновационные педагогические технологии и организация учебно – воспитательного и методического процессов в школе: использование интерактивных форм и методов в процессе обучения учащихся и педагогов / И.В. Никишина – Волгоград: Учитель, 2007. – 91 с.
7. Образовательный портал Центра дистанционного обучения Московского государственного института электроники и математики [Электронный ресурс] – Режим доступа: <http://Dlc.miem.edu.ru>.
8. Клайн, П. Введение в психометрическое проектирование: справочное руководство по конструированию тестов / П. Клайн. Перевод с англ. [Под ред. Л. Ф. Бурлачука]. – Киев: ПАН Лтд. - 1994. - 288 с.
9. Slish, D. F. (2005). Assessment of the use of the jigsaw method and active learning in non-majors, introductory biology. Bioscene: Journal of College Biology Teaching, 31(4), 4–10.

